# 2020- yil yanvar-may oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Xorazm viloyatida jami **1009,5** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2019- yilning yanvar–may oylariga nisbatan **94,7 %** ni tashkil etdi.




## 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo’yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo`yicha bo`linadi.




***Ma‘lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **77,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **147,2 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,8 %** punktga ko'payib, **7,7 %** ni tashkil etdi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




***Ma'lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Urganch shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***47,0*** *% i yoki 2019- yilning yanvar-may oyiga nisbatan* ***267,4 %),*** *Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***24,6*** *% i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan* ***263,3*** *%), va Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***9,4 %*** ***i,*** *yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan* ***93,7*** *% ) ga to'g'ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **63,9 %** i to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **3,7 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **88,6 %** ni tashkil etgan holda **644,7** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to’g’ri kelgan qurilish ishlari ulushi o’tgan yilning mos davriga nisbatan **28,5** % ni tashkil etdi yoki **287,3** mlrd. so’m miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **100,1** % ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

**ulushi % da** | **mlrd. so'm**







Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **67,0** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **160,6 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **942,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **92,0 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **6,6 %** va **93,4 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





## Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so’m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk * | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| Xorazm viloyati* | 1009,5 | 67,0 | 100,0 | 942,5 | 100,0 |
| Urganch sh. | 296,4 | 16,1 | 24,0 | 280,1 | 29,8 |
| Xiva sh. | 67,9 | 3,4 | 5,1 | 64,5 | 6,9 |
| tumanlar: | | | | | |
| Bog‘ot | 63,9 | 10,0 | 14,9 | 54,0 | 5,7 |
| Gurlan | 58,4 | 6,3 | 9,4 | 52,2 | 5,5 |
| Qo‘shko‘pir | 47,1 | 6,6 | 9,9 | 40,5 | 4,3 |
| Urganch | 86,3 | 2,1 | 3,1 | 84,3 | 8,9 |
| Hazorasp | 33,2 | 3,7 | 5,5 | 29,5 | 3,1 |
| Tuproqqal’a | 26,5 | 0,0 | 0,0 | 26,5 | 2,8 |
| Xonqa | 70,8 | 2,2 | 3,3 | 68,5 | 7,3 |
| Xiva | 78,4 | 0,0 | 0,0 | 78,4 | 8,3 |
| Shovot | 64,1 | 6,7 | 10,0 | 57,4 | 6,1 |
| Yangiariq | 54,9 | 2,6 | 3,9 | 52,3 | 5,5 |
| Yangibozor | 61,6 | 7,3 | 10,9 | 54,3 | 5,8 |

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

***2020- yil yanvar-may***

**66,3 %**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 66,3 % i yoki **668,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**84,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **65,6** mlrd. so'm ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 84,6 % ni tashkil etdi.

**55,1 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **355,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 55,1 % ni tashkil etdi.

**86,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **248,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 86,4 % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur‘ati, % da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m) |
|---|---|---|---|
| Xorazm viloyati* | 1009,5 | 94,7 | 668,9 |
| Urganch sh. | 296,4 | 97,7 | 202,2 |
| Xiva sh. | 67,9 | 82,7 | 43,5 |
| tumanlar: | | | |
| Bog‘ot | 63,9 | 94,0 | 37,0 |
| Gurlan | 58,4 | 83,8 | 33,6 |
| Qo‘shko‘pir | 47,1 | 101,5 | 29,0 |
| Urganch | 86,3 | 97,7 | 59,3 |
| Hazorasp | 33,2 | 104,9 | 22,7 |
| Tuproqqal’a | 26,5 | 101,0 | 18,4 |
| Xonqa | 70,8 | 118,3 | 54,4 |
| Xiva | 78,4 | 81,7 | 41,5 |
| Shovot | 64,1 | 97,2 | 44,1 |
| Yangiariq | 54,9 | 96,8 | 45,0 |
| Yangibozor | 61,6 | 85,1 | 38,2 |

*Hududlar bo’yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda

## Viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari ulushi,% da

### 2019- yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 7,4 | 21,7 | 70,9 |

### 2020- yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 7,5 | 21,3 | 71,2 |

***Ma'lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

**ulushi % da**

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,7 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **0,6 %** punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktga kamayib, **58,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga ko‘payib, **40,0 %** ni tashkil etdi.





## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

**ulushi % da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **18,4 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **7,4 %** punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **81,6 %** (**7,4 %** punktga kamayish) tashkil etdi.

.





## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **10,5 %** punktga ko'paydi va **33,8 %** ni tashkil etdi. Qolgan **66,2 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **10,5 %** punktga kamaydi.





## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

*mlrd. so'm*

| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashti-rilgan qurilish ishlari |
| Xorazm viloyati* | 1009,5 | 719,1 | 214,6 | 75,8 |
| Urganch sh. | 296,4 | 170,4 | 106,1 | 19,9 |
| Xiva sh. | 67,9 | 47 | 19,2 | 1,7 |
| tumanlar: | | | | |
| Bog‘ot | 63,9 | 45,9 | 13,8 | 4,2 |
| Gurlan | 58,4 | 46,3 | 8,2 | 3,9 |
| Qo‘shko‘pir | 47,1 | 35,5 | 7,3 | 4,3 |
| Urganch | 86,3 | 65,3 | 16,1 | 4,9 |
| Hazorasp | 33,2 | 26,9 | 5,9 | 0,4 |
| Tuproqqal’a | 26,5 | 21,8 | 4,2 | 0,5 |
| Xonqa | 70,8 | 44,1 | 4,6 | 22,1 |
| Xiva | 78,4 | 66,1 | 10,3 | 2 |
| Shovot | 64,1 | 49,4 | 7,4 | 7,3 |
| Yangiariq | 54,9 | 50,1 | 4,1 | 0,7 |
| Yangibozor | 61,6 | 50,3 | 7,4 | 3,9 |

*Hududlar bo’yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda



## Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari, ulushi % da.







Joriy yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilish ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Yangiariq tumanida qayd etildi (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining 91,2 % i yoki **50,1** mlrd. so'm), shuningdek, Xiva tumani (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining 84,3 % i yoki **66,1** mlrd. so'm), Tuproqqal'a tumani ham (ushbu hududda joylashgan bino va inshootlari qurilishining umumiy hajmidan 82,3 % i yoki **21,8** mlrd so'm), o‘z ulushiga ega.

Joriy yilning yanvar-may oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining 35,8 % i yoki **106,1** mlrd. so‘m), Xiva shahri ( ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining 28,3 % i yoki **19,2** mlrd. so'm), Bog`ot tumani (ushbu hududda joylashgan fuqarolik obyektlari qurilishining umumiy hajmidan 21,6 % yoki **13,8** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi, jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Xonqa tumanida (ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining 31,2 % i yoki **22,1** mlrd. so‘m), Shovot tumani (ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining 11,4 % i yoki **7,3** mlrd. so'm), Qo‘shko‘pir tumani (ushbu hududda joylashgan ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmidan 9,1 % yoki **4,3** mlrd. so'm) da qayd etildi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

### Eng yuqori hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Urganch sh. 296,4
2. Urganch 86,3
3. Xiva 78,4



### Kichik hajm

*(mlrd. so'm)*

1. Qo'shko'pir 47,1
2. Hazorasp 33,2
3. Tuproqqal'a 26,5

**Xorazm viloyati**
**Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

**Aloqa telefoni: (62)*224-65-22***